

"Ta'limdi an'anaviylik va novatorlik uyg'unligiga erishish lozim!"

Xalq ta'limi vaziriga ochiq xat bo'yicha ayrim mulohazalar

5-bet

Professor – o'qituvchi

talabalar ishonchini qozonish uchun o'z ustida doimiy ishlashga majbur bo'ladi

O'zbekiston Respublikasida o'quv jarayoni ni kredit-modul tizimi asosida tashkil etisha, asosan YCTSga o'tishga ustuvorlik berilmoga.

7-bet

Lug'atlarda yo'q so'zlar

Televideeniye, radio, bosma nashrlar tili qashshoqlashib borayotgan, rasmiy hujjatlarda ishlatilayotgan so'zlar doirasi torayib borayotgan hozirgi kunda ota-bobolarmizdan meros shunday so'zlarni keng mu'malaga, lug'atlarga olib kirishimiz zarur va shart!

9-bet

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2020-yil 10-iyun, chorshanba № 19 (9292)

Xalq ziyolilari gazetasi

Mushtariy muhokamasi

"Darsliklar masalasida tender e'lon qilinishi kerak!"

Xalq ta'limi tizimida so'nggi 3 yilda katta o'zgarishlar bo'lgani ayni haqiqat. Vazir Sherzod Shermatov chiqishlarida o'qituvchilarini yillar davomida qiyinab kelayotgan majburiy mehnatga barham berilgani, majburly obuna tugatilgani, oylik maoshlar oshirilgani, erkak o'qituvchilarning maktablarga qaytgani, chekka hududlarda ham maktablar qurilayotganini bot-bot ta'kidlaydi. Albatta, bu

o'zgarishlardan ta'lim fidoyilarining boshi ko'kka yetdi. Yangilanishlar pedagoglarni ruhlantirdi, yanda shijoat bilan ishlashga undadi. Lekin tizimda yechimini kutayotgan muammolar hali talaygina. Gazetamizning o'tgan sonida "Xalq ta'limi vaziriga navbatdagi ochiq xat" berilgan edi. Bu ko'plab pedagoglarni mushohadaga chorladi.

3-bet



9-sinf "Ingliz tili" darsligi mualliflariga ochiq xat

Assalomu alaykum, darsligimizning hurmatli mualliflari! Siz yaratgan darslik tengdoshlarim va o'qituvchilarimni o'ya solmoqda, shu vajdan sizga maktub yozishga qaror qildim. Men va sinfdoshlarim o'tgan

o'quv yili davomida 2014-yilda nashr etilgan Lutfullo Jorayev va boshqa bir qancha pedagoglar hammu-allifligidagi bu darslikni ko'p muhokama qildik.

3-bet

O'qiluvchi nimani o'ylaydi?



Ushbu sonda biologiya, kimyo, ona tili va geografiya fanlaridan test namunalari nashr qilinmoqda!

Obuna bo'lishni unutmang!

Ba'zida yoki kirill, yoki lotinda jadval to'ldiringlar, deya buyruq keladi. Ta'limda ham yozuv borasida bir to'xtamga kela olmayapmiz. O'qituvchilar majburlikdan lotinda yozadi. Yoshi katta pedagoglar qiynalaman deb kirill yozuvida yozishadi. Ta'lim hujjatlari ham kirilda yuritiladi. Qachongacha yozuv masalasida arosatda yuramiz? O'zimizni majburlab bo'lsa-da, lotinga o'taylik. Chet tilida ham yozymapmiz-ku. Nahotki, o'zbek tili imlosi uchun o'zimizni o'zga tilga uruntirganchalik uruntirishni xohlasmaymiz?!

Rayona USMONOVA

Yuqori mansabdagi shaxslarning o'zlarini va oila a'zolari uchun davolash tekin. Vazirlarning oila a'zolidan bирор тасалоти касал бо'lsa, хатто чет елда бепул даволаниш имкони берилган екан. Yozuvchilar uchun ham maxsus poliklinika borligi haqida eshitgaman. Asabları eng ko'p buziladigan kasblardan biri o'qituvchilikdir. O'qituvchilarga mana shu kabi imtiyozlar berilsa qaniyi. Yoshi katta o'qituvchilarning ko'pchiligidagi qand kasalligi bor. Yozuv-chizuvlardan, hujjatbozlikdan mikro-insult, mikroinfarktni boshidan o'tkazgan o'qituvchilar qancha...

Dilnoza QODIRBERGANOVA

Davlat tiliga e'tibor kuchaytirilayotgan bir paytda maktablarda ona tili va adabiyot fanlarining ayovsiz qisqartirilishini o'zbek tiliga bo'lgan xiyonat deb baholayman. Xalq ta'limi vazirligidan yanagi tayanch o'quv rejani yana bir bor ko'rib chiqilishini talab qilaman!

GO'ZAL

Kichik e'tirozim bor!

Ona tili darsliklari juda qiziqarli va mazmuni bo'lishi kerak aslida. Ammo ba'zan mualliflarning mavzulariga ko'r-ko'rona yondashganidan ko'nglimiz xira tortadi. Negadir qoidalardan chetga chiqa olmaymiz.

Keyingi o'quv yilidan ona tili darslari keskin qisqarayotganini eshitib, qattiq ranjidik. Gap bizning maoshimiz kamayishida emas, buning aksi bo'lishi ham mumkin hali. Gap boshlang'ich sinfga o'qishga kelgan o'quvchini hali u ona tilida oddiygina so'zlashuv, kundalik turmushda kerakli so'zlarini bilgani holda, qanday qilib chet tillar - hisob ilmiga o'rgatishda. Agar ona tili darslari bu tarzda kamaysa, o'quvchilarimiz boshqa darslarda o'zbekcha so'zlarining ma'nosini tushunolmay qoladi.

Aslida ona tili darslarida ilmiy atamalar degan mavzuga soatlarni ko'paytirib, har birida ma'lum fan sohasiga oid atamalarni chuqur o'rgatish, shu fanga oid

matnlar, qiziqarli hikoya, g'aroyib hodisalar matnini berib, ona tiliga uyg'unlashtirib yuborish kerak. Masalan, adabiyotga, mehnatga yoki matematikaga oid atamalar. Bular bizga oddiy tuyuladi, ammo bolaning yo darsni tushunib, unga qiziqib qolishiga olib keladi, yo bo'lmasa teskarisi. Odatda, kichik maktab yoshidagi bolalarga ma'lum fandagi so'zlar boshdan-oyoq o'rgatilmaydi. Kuzahtilarimga ko'ra, o'quvchilar badiiy kitoblarni o'qiganda ham aymrin so'zlarining ma'nosini anglamaydi. Ko'pchilik bolalar ustoz bu so'z nima degani, "u so'zning ma'nosini nima", deya so'rashadi. Bu bolalarining ona tilidagi ko'p so'zlarini yaxshi bilmasligini ko'rsatadi. Agar

ona tili darsi qisqartirilsa, bolalarimizga chet tillarni ham yaxshi o'rgatolmaymiz. Hatto o'zbek bolalari ichida o'zbek sinflarda o'qib turib ham inglizcha so'zlarini yaxshiroq tushunadigan bolalar tarbiyalanib qoladi va ularning milliy tarbiyasida nuqsonlar bo'ladi, degan xavotir yo'q emas. Maktabda ishlagan o'qituvchi o'quvchi bilan darsda qanday qilib yaxshi ishslash mumkinligini yaxshi biladi. Bunda til juda muhim.

O'mni kelganda 3-sinf "Ona tili" darsligidagi 402-mashqqa e'tiroz bildirmoqchiman. 3-sinf bolaga "qachon?" so'rog'iga javob bo'luchchi ega va shunga munosib "qanday?" so'rog'iga javob bo'luchchi kesimni misol keltirish qanchalik oson? Muallifning o'zi buni chuoqroq o'ylab ko'rganmi? Ekspertlar qayerga qarashgan? Keyingisida o'n yoshli bolakay "qayerga?" so'rog'iga javob bo'luchchi kesimga misol keltirishi kerak. Xatolar, nomutanosibliklar, yosh psixologiyasiga amal qilinmagani o'rinni

bir shugina, yo bitta ona tilida bo'lsa ekan. Axir bu ko'r-ko'rona yozilgan kitoblar millatni botqoqqa olib ketmaydimi? Savodsiz, ilmdan bezgan bolalar jamoasi shakllanmaydi deb kim kafolat beradi? Men xato topib xursand bo'ladigan o'qituvchi emasman. Mana shunday kamchiliklar sabab darslarda bolalar bilan ishlayotganimda ko'nglim og'riyi. O'zim kabi kasbdoshlarga, beayb, biz kattalarga ishongan, kitobga ixlos qo'yan bolalarga achinaman.

Darvoqe, yuqorida berilgan topshiriqqa misol topganman. Axir bolalar oldida uyalib qolishim mumkin (aslida bu mashq ugya vazifa qilib berilishi kerak edi).

1. "Tong go'zal". 2. "Hamma ha sharga". O'ylab ko'ring-chi, siz 3-sinf bola o'mida ushbu topshiriqqa bundan boshqa qanday misol keltirardingiz?

Muhayyo MAMAJONOVA,
Chust tumanidagi 42-maktab-internat-
ning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

O'qituvchi minbari

Xalqimiz tarixi, urf-odatlari haqida bitmas-tuganmas malumotlar bor. Ularni o'rganish, o'zlikni anglash qanchalik qiziq, ammo negadir yoshlar orasida shu bebaho tariximizni o'rganishga qiziqish birmuncha susayganga o'xshaydi. Qarangki, bugungi yigit-qizlarni rasmga tushish-u turli "chellenj"lardan, "Instagram" tarmog'idan boshqa narsalar qiziqtirmay qo'ysi. Lekin pedagog qanday qilib bo'lmasin "ulovning bandi"ni o'z qoliga olishi va ilm manzili sari yo'l boshlashi kerak.

Ingliz tilida tariximizni so'zlataylik

Kichik bir maktabda ishlaganim uchun ham boshlang'ich sinflarga, ham yuqori sinflarga dars beraman. O'quvchilarga ingliz tili grammatikasi, fonetikasini o'rgatish asnosida shu tilda so'zlashuvchi millatlar madaniyatini ham o'rgatib boraman. O'quvchilarning qiziqliki kuchaygan zahoti mavzuni o'zimizga qarataman. "Man, ingliz tilida so'zlashuvchi millatlarning kelib chiqishini o'rgandi, xo'sh, biz o'zimiz tarixa kim bo'lganmiz, ota-bobolarimiz qanday yashashgan, bilganlariningizi ayteng...". Tabiiyki, bu savoldan so'ng o'quvchilarning juda kam ma'lumotga ega ekanligi ayon bo'lib qoladi. Endi ular bir-birlarini hayron qoldirish uchun izlanadilar. Topshiriq ham shu bo'yicha beriladi.

Deyarli barcha sinflarning ingliz tili darsliklarini ko'rib, kuzatib shu fikrga keldimki, milliy bayramlarimiz, milliy kiyimlarimiz, an'analarimiz haqida ingliz tili kitobida alohida bo'lim ajratilib, uni o'rganish o'quv rejasiga kiritilishi kerak. To'g'ri, 5-sinf ingliz tili darsligida "I like Navruz" deb nomlangan mavzu berilgan. Ammo bu mavzu o'ta sodda yoritilgan. 8-sinf darsligida esa inglizlarning "Bonfire night", "Merry Christmas" deb atalgan bayramlari juda chiroyligi olib berilgan. Bu mavzularni o'quchi o'rganar ekan, shu bayramlar haqida to'liq ma'lumot oladi. Xo'sh, nega bizning milliy bayramlarimiz haqida ma'lumot berilmaydi? Aniqroq aytadigan bo'lsak, biz bu bayramlar haqida ma'naviyat soatlari, milliy istiqlol g'oyasi fanlaridan o'rganishimiz mumkin xolos, lekin ingliz tilida o'quvchilar tariximiz va an'analarimizni so'zlay olsa, qanday yaxshi! 10-sinfda alohida qilib "National traditions and customs" deb nomlangan bo'lim kiritilsa yaxshi bo'lar edi. Unda Navru'z an'analarini va milliy kiyimlar, to'y marosimlari, Hosil bayrami haqidagi ma'lumotlar kiritilishi lozim. 10-sinf o'quvchisi B2 darajaga ega bo'lishi kerak ekan, demak, u o'z fikrini ingliz tilida bemalol ifodalay oladi. O'z tarixidan faxrlanish tuyg'usini ingliz tilida ifodalab bera olishini bir tasavvur qilib ko'ring.

Muharram TURSUNOVA,
Yangiqo'rg'on tumanidagi 40-maktab o'qituvchisi

"Televizorga aylanib qolishni istayman"

Bugungi yoshlar axborot texnologiyalari sohasida ota-onalarini ortda qoldirishgan. Ular internet tarmog'i orqali turli shakllarda dunyo bilan muloqotga kirishadi, o'zlariga kerakli ma'lumotlarni olib, yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishni tezlashtiradilar. Bu yaxshi, albatta. Lekin internet tarmog'ining yoshlar uchun zararli tomonlari ham bor. Ko'p vaqtini kompyuter yonida o'tkazishi natijasida ko'zlarini xiralashadi, kun tartibi buziladi. Ular erinchqo va loqayd odamga aylanib qolishi mumkin.

Keling, masalaning mohiyatiga nazar tashaylik. Yaqinda bir ibratlari hikoya o'qib qoldim: o'qituvchi bir aynoli maktabga chaqirtilib, o'g'lining o'zini tutishi borasida gaplashmoqchi ekanini ma'lum qiladi. Onanig qo'liga farzandining "Men kelajakda kim bo'lmochiman?" mavzusidagi inshosini beradi. O'g'lining fikrlarini o'qigan onanig ko'zlariga yosh keladi. Insho juda ta'sirli edi: "Men kelajakda televizorga aylanib qolishni orzu qilaman. Chunki ota-onam unga ko'proq e'tibor berishadi. Har doim maktabdan kelayotganda otam bilan biron narsa yasashni yoki onam bilan o'zinga qiziqarli mavzuda suhbatlashishni xohlayman. Lekin uyga borganimda ular meni hecham intiqib kutmayotganlarini sezaman. Onam uy beka si bo'lsa ham tushlik qilayotgan paytimda men bilan o'tirmaydi, o'z ishlari bilan band yoki qandaydir serial ko'rayotgan bo'ladi. Kechki ovqat payti otam va onam televizordagi ko'rsatuv va seriallarni ko'rish va ularni muhokama qilish bilan band bo'lashi. Ko'pincha yonlarida o'tirganimni umutib ham qo'yishadi. Darslarimni ham o'z xonamda yolg'iz tayyorlayman. Shuning uchun men televizorga aylanib qolishni orzu qilaman, chunki o'shangagina ota-onam diqqat markazida bo'laman".

Bu inshoni onaga ko'rsatgan o'qituvchi ayol bilan uzoq suhbatlashibdi. Bolalarning bu yoshdagisi ruhiy holati haqida gapiribdi. Onanig o'g'liga munosabati keskin o'zgaribdi.

Yuloridagi hikoyadan biz - ota-onalar o'zimizga kerakli xulosa chiqarib olishimiz zarur. Chunki farzandlarimiz bizdan e'tibor, maqtov kutishadi. Kutganlariga erisholmagach, yaxshi munosabati ko'chadan yoki internet tarmog'idan olishlari mumkin. Bu holat juda achniarli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ota-onadan kutgan e'tiborni qandaydir tarmoqlardan olgan bola ularga bog'lanib qolishi hozirgi kun-

ning eng dolzarb muammolaridan biri. Chunki o'yin ko'rinishidagi ayrim zararli saytlar bolalarni har xil jinoylatlarga ham boshlamoqda.

Ancha yillardan beri o'qituvchilik qilaman. Ma'lumki, har bir ta'lim muassasasida "tarbiyasi og'ir bola" degan tushuncha bor. Ular darslarga ko'p kelmay qoladi, mashg'ul payti o'qituvchining aytganini qilishmaydi, darsni buzib boshqalarga ham xalal berishadi. Agar o'qituvchi tanbe bersa, boladagi qaysarlik ortsa ortadiki, lekin tinchlanmaydi. Shuning uchun men bunday bolalar bilan boshqacha yo'l tutmoqchi bo'ldim: avvalo, ismiga "jon" qo'shib murojaat qildim. Darsga o'quv qurollarisiz kelganida urishmadim, aksincha, o'zim dafatar va ruchka berdim. Bola darslarda oz bo'lsa ham yoza boshladi. Uning oilaviy ahvoli bilan qiziqsam, ota-onasi ajrashgan ekan. Farzand ikkoviga ham ortiqcha yuk bo'lib, aro yo'lda qolgan. Hech kimdan yaxshi gap eshitmagani bora hayotdan alamanzada odamga aylangan. Internet tarmog'idi ba'zi o'yinlar uchun aynan shunday qatnashchilar kerak. Ular kimlargadir o'zlarini ko'rsatib qo'yish yoki kimlardandir alamini olish maqsadida shunday o'yinlarda ishtirot etishadi.

Xulosa o'mida shuni aytamanki, farzandlarimiz - bizning kelajagimiz. Kelajagimiz pir-u badavlat keksalik bo'lishini istasak, bolalarimizga har doim yaxshi munosabatda bo'laylik, har bir qilgan ishiga e'tibor beraylik, yutuqlari uchun rag'batlaniraylik. Mashhur bir olim aytganidek, har bir bolada qaysidir sohaga layoqat, iste'dod bo'ladi. Ota-onalar uni aniqlab, farzandini o'zi yoqtirgan sohaga yo'naltirishi kerak. Keling, hummatli ota-onalar, kelajak avloddan mehr va e'tiborimizni ayamaylik!

Dilnoza SULTONOVA,
Sirg'ali tumanidagi 32-maktabning
chet tilli fani o'qituvchisi

Endi 9-sinf darsligida ham kasblar haqida mavzu berilishi biroz g'lati emasmi?!

3

“Darsliklar masalasida tender e'lon qilinishi kerak!”

(Davomi. Bosh 1-betda.)

Valijon QODIROV,
pedagogika fanlari doktori
(Andijon davlat universiteti):

Ushbu murojaatda bildirilgan fikrlar tizimdag'i joriy holatga nisbatan xolis va to'g'ri bahodir. Hozir respublika ta'lim markazidagi mutaxassislar hamda tajribali amaliyotchi o'qituvchilardan iberat ishchi guruhlar shakkantirilish, har bir fan bo'yicha yangi shakl va mazmungadi milliy o'quv dasturlarini tuzish ishlari olib borilmadiga. Agar bular ko'ngildagidek amalga oshsa, muammolarning aksari o'z yechimini to'pishi kutilmoqda. Shunda ham ochiq xatda bildirilgan takliflarning ayrimini qat'iy inobata olish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, yagona dastur bo'yicha muqobil darsliklar yaratish masalasi bugungi kun uchun g'oyal dolzab. Ta'lim tizimida bir predmet bo'yicha ikki yoki undan ortiq darsliklarning qo'llanishi darslik mualliflari o'tasida sog'lam raqobatga, raqobat esa tabiyi rivojlanishga o'yl o'chadi. Eng muhim, darsliklarning past-balandini amaliyotning o'zi ko'rsatadi, tabiyi tanlov jarayoni kechadi. Talabaga javob bermaydigan darsliklar o'z-o'zidan chiqib ketaveradi. Faqat bu ishlarning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan bir omil borki, usiz ko'zlangan maqsadga erishilmaydi. Ya'n ta'jriba va izlanishlar natijasi bo'lmish ilmiy asoslangan dasturlar yaratish. Hali biron fandan ilmiy asoslangan dastur bor deb aytolmaymiz. Aksar hollarda yuqorida belgilangan qisqa muddat ichida shoshilinch tarzda dasturlar tuziladi. Ular tuzuvchilarning shaxsiy yondashuvlari, qarashlarning mahsul bo'lib qolmoqda. O'rtacha ikki yil davomidagi tajriba, kutatish, izlanishlarga asoslangan pedagogik, metodik tadqiqotlarning ilmiy asoslangan natijalariga tayangan bolda dasturlar yaratilsa, bu boradagi mukammal hujjatga ega bo'larni. Buning uchun esa hozir amalga oshirilayotgan ishlarga baqmati ravishda istiqboldagi rivojlanishni ko'zda tutib, Xalq ta'lim vazirligi buyurtmachi sifatida mur-ojaat qilishi o'rni bo'ladi. Ilmga, ilmiy tadqiqot natijalariga asoslangan har qanday faoliyatda kentiklik bo'ladi. Vazirlik respublikagi metodist olmlar va metodik faoliyat olib boyrotgan mutaxassislar bilan aloqani kuchaytirishi lozim.

Ziyoda MAMAJONOVA,
Kosonsoy tumanidagi
28-maktabning ona tili va
adabiyoti fani o'qituvchisi:

— Har yili bizdan darsliklardagi kamchiliklari haqida fikr, takliflarni olinadi. Lekin yangi darslik qo'lg'a

yetib kelganda aksariyat xatolar o'z o'rniada qoladi. 2019-yilda nashr etilgan "Ona tili", "Adabiyot", "Tariix" darsliklari an-chagini yaxshi. O'quvchini fikrashga, jod qilishga undaydi. Ammo izoh talab qiladigan, murakkab matnlar tahlili o'qituvchini ham qiyab qo'yadi. Darsliklar yaratiladi, vaqti o'tib yangidan nashr qilinadi, bir-oq u bilan teng yaratilishi kerak bo'lgan metodik qo'llanmadan darak bo'lmaydi. O'quvchi qo'lidagi darslik asosida bilim oladi. O'qituvchiga esa o'sha darslikdagi mavzular bo'yicha kompetensiyalar hosil qilishning bir necha xil usullari ko'rsatilgan metodik qo'llanma doim zarur. O'z faoliyatida turli qo'llanmalarni darsliklar bilan solishtirib dars o'tib kelayotgan o'qituvchi sifatida oldimizda 5-10 xil darsliklar bo'lishini, ular orasidan eng quay, o'rgatishga osonini tanlab olishini juda-juda istaymiz. Mavzular boshqasini to'ldirishi, hayotni anglatishi, o'quvchini mantiqiy fikrashga o'rgatishi kerak. DTM testlari da ham "Qaysi asar qahramoni 'Innaykeyin' so'zini takrorlaydi?" tarzida jo'n emas, balki qahramon ruhiyati, asarlar pafosi, tildagi imkoniyatlar, tarixiy voqealar silsilasidagi muhokamatlasidagi savollar bo'lishi maqsadga muvofiq. Kelayotgan o'quv yilida nashr etiladigan darsliklarda xotirani emas, kompetensiyalarni shakkantirishga ko'proq e'tibor berilsa, yaxshi bo'lardi.

Hoshim HAKIMOV,
Kitob tumanidagi 79-maktabning
rus tili fani o'qituvchisi:

— Darsliklarda notog'ri ma'lumotlar ko'payib ketgan. Quyi sinf darsliklari berilgan ma'lumotlari yugorini sinfga kelganda o'zgarib ketadi. Hatto o'quvchilar ham kitobdagi kamchilik va xatolarni bermalol aniqlayapti. Bunga o'rganib ham qolishdi. Bu holat o'quvchilarning fanga qiziqishini susutiribinga qolmay, o'qituvchiga bo'lgan hummatni ham kamaytiradi. DTM savollarining aksari darsliklarda olinmasligi ham o'quvchilarni qiyamoqda. Hozirgi abituriyentlarning darsliklarga umumani ishonchi yo'q. Baribir bu darsliklar bilan o'qishga kirolmaymiz deb hisoblaydi. Ko'philigi fanlar asosida tayyorlangan turli to'plam va variantlarni ko'targancha o'zlarini to'g'ri va ishonchli deb bilgan repetitorlarga qatnab yuradi. Bu vaziyatda ularni ayblay olamizmi?

Sevara OTABOYEVA,
Tabiiy fanlarga ixtisoslashirilgan
davlat umumta'lim maktabining ingliz
tili fani o'qituvchisi:

— To'g'ri, bitiruvchi sinfmiz, 9-sinflar kasbga yo'naltirilishi kerak. Lekin darslikda bo'yog'chi, mashina ustasi, sotuvchi, qo'shiqchi haqidagi ma'lumotlar berish kerak emas-da. Bular humar-ku?! O'quvchi maktabni bitirib, kasb-hunar maktabida ta'lim olsa bo'ldi, o'sha hunarlarini egallaydi. "Job" bilan "craft"ning farqi bor-ku axir!

Sinfimizda ingliz tilini bor-yo'g'i ikki kishi tushunadi. O'tgan yillarda bu darsga qiziquvchilar ko'p edik, lekin hadeb matnni o'zbekchaga o'girishdan charchashdi. Bir xillik qiziqishni so'ndirdi. Nima uchun har bir mavzuga bir betdan matn qo'yasizlar? Yana qandaydir chet eldera yashaydigan Lucyning yoki Jekning kun tartibi haqida. Masalan, mening Jekning kun tartibi bilan sariq chaqalik ishim yo'q. 45 daqiqalik dars sizning darslikka kiritgan "text"ingizing

agar darsliklarga maqolada taklif qilinganidek tender e'lon qilinib, bitta emas bir nechta darslik tasdiqlansa, maktablar qaysi darslikdan foydalanshini tanlasalar, raqobat yuziga kelardi, sifat ham faqat yaxshilanardi. Maqolada yangi nashr dan chiqayotgan darsliklar haqida ham to'g'ri fikrlar aytilgand. Yangi sining ichiga sinf ishi va uy ishi uchun masheqlar to'plami kiritilgan, uslub esa deyarli o'zgartirish. Bizga yangi, zamonaviy darsliklar kerak. Ingliz tili repetitorlarning asosiy yutug'i ham shunda. Ular ishlayotgan darsliklari kabi darsliklara yaratada oladigan ijodkor ustozlarga imkoniyat eshilklarni o'chish kerak.

Go'zal PINYOZOVA,
Yangiariq tumanidagi 31-IDUM
boshlang'ich sinf o'qituvchisi:

— Ochiq xatda ta'limni rivojlantirish faqat shakl-u shamoyiliga qaratilgani, darsliklarni eksisidan deyarli farq qilmasligi atiyb o'tilgan. Haqiqatan ham, yangi darsliklarning eksisidan deyarli farq qilmasligi, o'zgarishlarda faqat ayrim mavzularning ketma-ketligini almashtirish yoki ba'zi rasmalar yangilanishini kuzatish mumkin. Misol uchun, oxirgi chiqqan 1-sinf "Matematika" darsligida "Narsalarning oynada aksi" mavzusida faqat mavzuga oid rasmilar o'zgarni xolos. 1-sinf o'quvchilariga darsliklarda, ayniqsa "Alifbe" kitobida rasmlarning amahiyati juda katta. O'quvchilarning darslik sahifalarida gi har bir rasm orqali so'z bo'yiligi oshadi, fikrashi kengayadi. "Alifbe" darsligining 2018-yildagi 16-nashrining 8-sahifasida rasmlar orqali o'quvchi "Pilla" haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi. Ipak qurti, pil-ladan tayyorlanadigan mahsulotlar rasmlari berilgan. 2019-yilgi yangi 17-nashrda esa shu sahifada qo'g'irchoq, robot, raketa rasmlarini ko'rish mumkin. Bu suratlar orqali biz bolajonlar lug'atini xorijiy so'zlar bilan boyitaytaymiz. Yana shu darslikning eski nashri 22-sahifasida "K tovushi va Kk harflari" mavzusida Kk harfliga kompyuter rasmli berilgan, yangi 17-nashrda esa kompyuter rasmli koptok rasmili bilan almashtirilgan. Maktabga ilk qadam qo'ygan o'quvchilarning lug'at boyligini so'zbekcha so'zlar o'miga xorijiy so'zlar bilan boyitish qanchalik to'g'ri?! Kompyuter va koptok rasmli o'miga kitob rasmini qo'ygan

afzalroq-ku! Milliy tarbiya haqida jo'shib gapiramiz. Ammo oddiy ko'ringani bilan ahamiyati yuqori bo'lgan detallarga ahamiyat bermaymiz. Hozirgi zamon bolalari shusiz ham zamonaviy telefonlar- u kompyuter o'yinlari bilan ulg'aymoqda. Hech bo'lmaga maktab darsliklarida shu narsalarga kamroq urg'u berilsa, yaxshi bo'lar edi.

Mehriniso NOROVA,
Narbay tumanidagi
47-maktabning ingliz tili fani
o'qituvchisi:

— Darsliklar mavzusida meni uch asosiy omil o'ylantrirdi.

Birinchisi: darslik o'qituvchi faoliyatidagi asosiy va muhim o'quv qurolidir. Biz u haqida nashrha tayyorlashdan oldin to'liq ma'lumotga ega bo'lishimiz zarur, lekin ba'zi yangi nashriddagi darsliklar chiqarilib, o'quv jarayonida sinalgach, undagi xato, kamchilik va afzalliklardan xabar topamiz. Agar biz chiqarilayotgan darsliklarning mualliflari bilan har bir bob, mavzusi, topshiriqlari haqida oldindan muhokama va takliflar orqali fikr almashsak, mavjud va yo'q o'yilajak kamchiliklarni bartaraf etishiga erishardik. Chunki fanning qaysi mavzulariga e'tibor qilish, topshiriqlar tuzilmasi haqidagi ma'lumotlarni kengroq aniqlash uchun necha yillardan buyon ishlab kelayotgan shu soha vakillarining tajribasi va bilmiga tayanish samaralidir. Bu darsliklarda ba'zi mavzularning bir xilligi, tushunarsizligi, o'quvchilarning yoshiga mos bo'lmagan murakkabligi va boshqa xatoralarni oldindan bartaraf etish imkonini beradi.

Ikkinchisi: haqiqiy raqobati tender masalasi. Ochiqdan ochiq respublika bo'yicha yangi nashriddagi darsliklarni uchun tender e'lon qilish va uning oshkorva va adolatligini ta'minlash ta'lim rivojida munih qadamdir.

Uchinchisi: fan darsliklarimiz bo'la turib, olyi ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida daraja sertifikatlarini qo'lg'a kiritish (CEFR, IELTS va hokazo) uchun repetitorlik jarayonida boshqa qo'llanmalardan foydalananish. Bunga asosiy sabab ingliz tili darsliklarimizning xalqaro standartlarga to'liq moslashmagandir. Abiturientlar ingliz tili blok testlari va to'rtko'nikma daraja imtihonlari uchun fan darsliklaridan deyarli foydalannamydi, holbuki, darsliklarning asosiy vazifasi fan doirasida o'quvchilarning to'liq ma'lumotlarni yetkazish berishdir.

Niginabonu SHUKUROVA
tayyorladi.

9-sinf "Ingliz tili" darsligi mualliflariga ochiq xat

(Davomi. Bosh 1-betda.)

Mavzularning anchayin eski, zerikarli va takror berilishi darslarba bo'lgan qiziqishimizni so'ndiray dedi. Jumladan, "Personal qualities and jobs", "Applying for a job", "Political parties", "Local government", "A day in the life of" mavzularni biz uchun zerikarli bo'ldi. Shuning o'miga "I am online" mavzusi qo'yilsha yaqin do'stiga online xat yoziшtoshirig'i berilsa yaxshi bo'lardi.

Hozir boshlang'ich sinf darsliklarda ham qaysi kasbni egalash mavzusidagi savollar ko'p beriladi. Deyarlari barcha boshlang'ich sinf o'quvchilaridan kim bo'lasan, deb so'rasanligiz, askar, shifokor yoki yana boshqa biron kasb egasi bo'lishini ingliz tilida aytilib bera oladi. Endi 9-sinf darsligida ham kasblar haqida mavzu berilishi biroz g'lati emas-

mi?! To'g'ri, bitiruvchi sinfmiz, 9-sinflar kasbga yo'naltirilishi kerak. Lekin darslikda bo'yog'chi, mashina ustasi, sotuvchi, qo'shiqchi haqidagi ma'lumotlar berish kerak emas-da. Bular humar-ku?! O'quvchi maktabni bitirib, kasb-hunar maktabida ta'lim olsa bo'ldi, o'sha hunarlarini egallaydi. "Job" bilan "craft"ning farqi bor-ku axir!

Sinfimizda ingliz tilini bor-yo'g'i ikki kishi tushunadi. O'tgan yillarda bu darsga qiziquvchilar ko'p edik, lekin hadeb matnni o'zbekchaga o'girishdan charchashdi. Bir xillik qiziqishni so'ndirdi. Nima uchun har bir mavzuga bir betdan matn qo'yasizlar? Yana qandaydir chet eldera yashaydigan Lucyning yoki Jekning kun tartibi haqida. Masalan, mening Jekning kun tartibi bilan sariq chaqalik ishim yo'q. 45 daqiqalik dars sizning darslikka kiritgan "text"ingizing

yarmuni tarjima qilishga ham yetmaydi. Ulgurmaymiz. Chunki matmming ichida biz bilgan-bilmagan so'zlar mayjud, ularni lug'atdan topishga ham vaqt sarflaymiz. Ha, aytgancha, kitobning ortidagi lug'atdan ba'zi so'zlarini topib bo'lmaydi. Darslikda grammatic mashqlar juda oz. Taklifim, agar iloji bo'lsa, grammaticaga ko'proq e'tibor qaratangsiz. Qiziqarli mashqlar, o'quvchini o'ylatadigan, fikratalidigan mashqlarni darslikka kiritilsangiz. Yoki lug'at mashqlar, mashhur internet tarmoqlari yoki interneta ko'p qo'llaniladigan so'z va iboralar tarjimalari yoki shunga o'xshash so'zlarga to'g'ri ta'rif tanlashga doir mashqlar bilan "text"ingizing

Bir o'quvchi sifatida qo'lim-dagi darslik qiziqarli bo'lishini va shu darslikdan oлган bilimlarim kelajakda foyda berishini istayman. 9-sinf "Ingliz tili" darsliklari 40 foiz ma'lumot o'quvchiga jindek bo'lsa ham foydasi tegsa, do'ppingizni osmonga otaverishing, mualliflar. Kitobning boshidagi bayramlar o'miga turli davlatlarining ur-o'datlar haqida yangi ma'lumotlarni kiritish kerak. Uchragan 9-sinf o'quvchisi ni to'xtabit, "Verb" nima?", "Subject" nima?", deb so'rang, qanday javob berar ekan. Men ingliz tilida ota va fe'lining nima ekanini bilmas edim. 7 oy repetitorlarga qatnab bilib oldim. Oddiy qilib aytadigan bo'lsam, bu darslik mazmumonancha eski. Zamonaliv ta'lim talablariga javob berolmaydi. Darslikning o'miga o'quvchilarga "Murphy", "Hedway"dan dars berilsa nur ustiga nur bo'lar edi.

Oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonida talablar juda yuqori bo'ladil. Lekin darslikning sifat darajasi past. Masalan, Prezident maktabida o'qish uchun o'quvchi ingliz tilini suviday ichib yuborgan bo'lishi kerak ekan. Lekin ochiq aytilish kerak (bejiz ochiq xat emas-ku) o'quvchi maktab darsligidan oлgan bilimiga tayanib bu maktabga kirolmaydi. Repetitoriga borishga majburmiz! Nima uchun maktab darsliklari uchun bora bu makammal qilib yaratilmaydi? Kuchli mualliflar, ustozlar yetishmaydimi? Yoki bi-zga shu ham bo'laveradimi?

Iltimos, darsliklarning savyasi, mukammalligi, qiziqarililigi oshiringizlar! Jonga tegdi-ku nuqul darsda uxlash!

Azizbek ABDUMALIKOV,
Chilonzor tumanidagi
202-maktabning
9-sinf bitiruvchisi

Sinab ko'ring

"Orol elegiyalari"

Ibroyim Yusupov asarlarini PISA topshiriqlari asosida o'rgatamiz

O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Ibroyim Yusupov she'rlerining tarbiyaviy ahamiyati kuchli. 5-sinf adabiyot darsligida shoiring "Yaxshi odamlar" she'ri berilgan. She'mi yod oldirish bilan birga, o'quvchilarga "Men qilgan yaxshiliklar" mavzusida kichik insho yozib kelishni topshiramiz.

6-sinf "Adabiyot" darsligida esa shoiring 4 ta she'ri berilgan. Endilikda o'quvchilarimiz PISA xalqaro baholash tizimida muvaffaqiyatlari natija ko'rsatishiga erishish uchun ularni teran fikrlashga, mulohaza qilishga o'rgatish shart. Hamkasblarimga yordam tariqasida Ibroyim Yusupov she'rleri asosida tuzilgan PISA topshiriqlarini taqdirm etaman.

Test

1. "Cho'girma" bosh kiyimi nima uchun katta bo'ligan?

A) Milliy kiyim bo'lgani uchun;

B) Terilar isrof bo'imasligi uchun katta qilib tikilgan;

C) Boylarning kiyimi bo'lgani uchun;

D) Katta bo'lib ko'rinish turishi uchun.

2. So'z va suhbatsiz davron bo'ladi?

So'z va suhbatsiz yashab bo'lmaydi. Insonlar o'tasida hamisha suhabat bo'lishi kerak. Hozirgi davrda odamlar ko'proq virtual olamda yashaydi, lekin bir-birlari bilan yuzma-yuz mazmuni suhabat qurish tarbiyali, mehrli, madaniyatlari bo'lishga asos bo'ladi.

8-sinf "Adabiyot" darsligida I.Yusupovning "Orol elegiyalari" she'ri berilgan. Bu she'r hozirgi zamona bilan bog'liq. She'mi o'quvchilarga tushuntirib bo'lganimizdan keyin "Aqliy hujum" metodidan foydalansa bo'ladi.

Savol

1. "Orol elegiyalari" she'rida Orol dengizi haqidagi nimalar aytildi?

She'mi o'qigan o'quvchi quriyotgon dengizni, qirg'odagi kemalarni, to'zg'iyoqtan chang-to'zon-

ni, odamlarning beparvoligi, aqslizligini ko'z oldida jonlanltiradi.

2. Hozirgi kunda Orol dengizi uchun qanday ishlardan amalga oshirilyapti?

Orol dengizingin qurigan hududlari uchun 2019-yilda 100 mlrd so'm ajratildi. Sahro sakssovuzorga aylantirilmoxda. Bu hali dunyoda misli kuzatilmagan aql bovar qilmas tajriba.

O'quvchilarga darsda "Orol elegiyalari" she'rini o'tganimizda qiziqarli ma'lumotlarni atib beramiz.

Birinchi musulmon kapitan

Mo'ynoqlik 78 yashar Almas Tolvashev qum kechib, zanglab yotgan ulkan kema qoldiqlari oralab nimalnadir eslaydi.

"Qoraqalpoq xalqining tarixi dengizdan boshlanadi. Bاليqchilik bizga otalarimizdan meroq kasb. O'g'il bolalar bizda eng avval otasidan dengizda baliq ovlashni o'rgangan", deydi sobiq baliqchi Almas ota. Almas otaning kemasini "Volga" deyisharkan. U Mo'ynoqdag'i birinchi kema kapitani bo'lgan, chunki bundan oldin kapitanlikka faqat ruslarni olishgan. Dengizda u paytlar 250 ta kema suzardi. Har kuni ota o'z kemasida 10 nafr baliqchi bilan birgalikda 600—700 kilo baliq tutgan. Hamon yosh yigitlardek baquvvat va qotmadan kelgan Almas ota "Kemalar qabristoni"ga kelib, zanglagan kematidan xabar olib turadi. U zanglagan temirga aylangan har bir kemaning 40 yil oldindi nomi va tarixini biladi(Ma'lumot internetdan olindi).

Shiyrinay ABDIJAMIROVA,
Xo'jayli tumanidagi
6-maktab o'qituvchisi

Yosh chet tili o'qituvchilariga quyidagi tavsiyalarni beramiz. Agar o'quvchilingiz yangi so'zlarni aktiv holatda qo'llashida muammolar yuzaga kelsa, siz eng samarali usuldan foydalanshingiz darkor. Quyidagicha usullar mavjud, ya'nii yosh bolalarda uch xil eslab qolish kuchli rivojlangan bo'ladi: tinglab eslash, ko'rib eslash (o'qib eslash) va yozib eslash.

To'siqlarni birgalikda yengamiz!

Bu uch usuldan 45 daqiqalik darsda foydalansangiz o'quvchining o'zlashtirishi ikki barobar oshadi.

Yangi so'zlarni audio shaklida o'quvchi kamida ikki yoki uch marta tinglashi lozim va yangi so'zlarga definition (tushuntirish) berasiz. Bu holatni mustahkamash uchun biror tinglab to'ldirish "filling gap" mashqini berishingiz mumkun.

2. Ko'rib eslash, ya'nii o'quvchi bu usulda yangi so'zlarni o'qish va so'z birikmali iboralarini mutolaa qilish orqali eslab qoladi. O'quvchingizga oldindan tayyorlangan biror matn berasiz, tushirib qoldirilgan so'zlarni joyiga yo'qib o'qish yoki tagiga chizilgan so'zlarning ma'nosini topish mashqlarini berasiz.

3. Yozish orqali eslash. Bundan siz pedagog sifatida doskada yoki o'quvchi daftarida bajargan yozuv mashqlarini tekshirasiz. Ular turlicha bo'lishi mumkun. Masalan: filling gap, spelling dictation, find missing word' va hokazo. Bu jarayonda to'g'ri va birinchi bajargan o'quvchi doskada birinchi gap yoki so'zni yozadi. Agar to'g'ri bajargan bo'lsa, navbatida o'quvchi chiqib yozadi. Agar noto'g'ri yozilsa bosh-

qa o'quvchiga to'g'rilash uchun navbat beriladi.

Bu uch usuldan tashqari yanada samarali usullar ham bor bo'lib, buni amalga oshirishning juda oson. Xohish bo'lsa bas. Yangi so'zlarni stick paper (yopishadigan kichik hajmdagi qog'oz)ga yozasiz va orqasida definition (so'zni tushuntirish) berasiz. Zinhor tarjimasini yozmang. Yangi so'zlar yozilgan stick paperlarni sinfxonadagi ko'rinnadigan joyga yopishitrasiz. O'quvchi kunning 4 dan bir qismini muktabda va sinfa o'tkazishini hisobga olsak, yangi so'zlarni yodlashga ularda ko'p vaqt bo'ladi va bu albatta samarali beradi. Bu usuldan o'quvchi uyda va darsxonasida ham foydalanma maqsadga muvofiq.

Navbatdagi smart uslubimiz bu kichik yoshdagagi o'rganuvchilar uchun ko'proq foydalib bo'ladi, ya'nii ular bilan yangi so'zlarni xor tarzida birgalikda aytish orqali samaraga erishasiz. Bu usul bir va ikki bo'g'lini so'zlarni yodlashda samarali, chunki bir yoki ikki bo'g'lini so'zlarni ritmik tafazzu qilish juda oson.

Ulugbek PAYG'AMOV,
Dilafro' OTABOYEVA,
O'zbekiston tumanidagi
7-maktabning inglez tili fani
o'qituvchilar

Bobolardan meros husnixat

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixat bilan yozishga o'rgatish metodikasi ularda aniq, chiroylari va tez yozish ko'nikmasini hosil qilishi lozim.

Yozuv kishilar hayotida pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga ega. 1-4-sinf o'quvchilarini husnixat qoidalari bilan chiroylari yozishga o'rgatish uchun o'quvchingiz o'zi husnixat bilan yozishi, shu bilan birga o'quvchilarini chiroylari yozishga o'rgata olishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini "Husnixat" va "Husnixat me'yorlari" atamalarini ko'p ishlatalardilar. Mana shu atamalarning ham o'z tarixi mayjudligi haqida hech o'ylab ko'rganmisiz?

O'zbek xalqi uzoq asrlik qadimiy va boy tarixiga ega. Uning boy madaniy merosida xattotlik san'ati alohida o'rinni

egallaydi. Arab istilosidan so'ng O'rta Osiyoga islom dini bilan birga arab yozuvni ham kirib keladi. Bu esa yurtimiz tarixida zarhal harflar bilan yozishga arzigulik voqeja edi. Shundan so'ng O'rta Osiyo hududida xattotlik, xushnavsilik va husnixat kabi san'atlar rivojlandi. Qo'lida chiroylari husnixat bilan ko'chirilgan har bir kitob san'at mo'jizasi kabi eng nodir asar hisoblangan. O'rta Osiyoda bu san'at XIV—XVI asrlarda ayniqsa rivojlandi. Hazrat Alisher Navoiy bobomiz ham go'zal husnixatga ega shaxs bo'lgan ekanlar.

Ba'zi manbalarda aytilishicha, eski maktablarda ham

chiroylari yozuvga alohida e'tibor berilgan. Eski maktablarida husnixat qoidalari o'rgatuvchi qo'llanma "Mufradot" kitobi bo'lgan. Hozirgi kunda maktablarimiz oldida muhim vazifalardan biri o'quvchilarining savodxonligini oshirishdir. O'quvchilarning savodxonligini oshirishda esa chiroylari va toza yozuvning roli katta. Mashhur rus pedagogi K.Ushenskiy husnixat darslariga alohida e'tibor berib, "Dastlabki orsografik malakalar husnixat darslarida tiklanadi", degan edi.

Hozirgi kunda husnixat qoidalari va ularga oid amaliy mashqlar namunasi Y.Abdulayevning "Sovg'a", "Yangi alifbo va imlo", "Hamrohim" kitoblarida o'z aksini topgan.

Barcha boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatni yaxshilash uchun mana shu qo'llanmalardan foydalansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Saida ELMURODOVA,
Kattaqo'rg'on shahridagi
11-IDUM o'qituvchisi

Hozir mashg'ulotlarda o'qituvchilar yangicha metod, usul va o'yinlardan foydalanshingga. Darsning qiziqarli borishida (agar ulardan o'rinni foydalanshingga) metodlarning roli katta. "Poyezd-poyezd" o'yini ham o'quvchilar diqqatini jamlashga, tezkorlikka o'rgatadi.

"Poyezd-poyezd" o'yini

Ushbu usuldan ko'proq darsning mustahkamash qismida yoki "O'tilgan mavzumlari takrorlash"da foydalanshingga mumkin:

1. O'quvchilar 2 suruhga bo'linib saflanishadi.
2. Guruh sardorlari saylanadi.
3. O'quvchi guruh sardori parovoz, qolgan o'quvchilar vagonlar ekanligini tushuntiradi.

4. O'quvchi galma-gal har guruhga alohida-alohida savol beradi. Birinchi savol "parovoz"larga, keyin esa "vagonlar"ga beriladi. To'g'ri javob bergan guruh a'zolari esa ortga qadam tashlaydi. Shu taripa oxirgi "vagon"gacha savol beriladi. Qaysi guruh birinchi bo'lib manzilga yetib kelsa, o'sha guruh g'olib sanaladi.

Bu usul boshlang'ich sinflarda qo'llansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Negaki, bu yoshda o'quvchilar harakatlari o'yinlarni sevib bajaradilar. Shu orqali ularni dars jarayoniga tortish, e'tiborini jaib qilish mumkin.

Dilnoza JUMANOVA,
Nukus shahridagi
7-IDUM o'qituvchisi

Munosabat

“Ta’limda an’anaviylik va novatorlik uyg‘unligiga erishish lozim!”

Xalq ta’limi vaziriga ochiq xat bo‘yicha ayrim mulohazalar

Pedagog olim va professor-o‘qituvchi sifatida ta’limda bolayotgan o‘zgarishlar, kiritilayotgan yangiliklar bilan tanishish, ularni tahlil etish va baholash hamda samarali foydalanish yo’llarini tadqiq etib boraman. Ta’lim sohasi rivoji uchun aytilayotgan mulohazalariga hamma vaqt o‘z munosabatimni bildirib kelganman va buni mutaxassis sifatida vazifam deb hisoblayman.

“Ma’rifat” gazetasida e’lon qilingan 2020-yil 3-iyun, 18-soni “Xalq ta’limi vaziriga navbatdagi ochiq xat” nomli maqola munosabat sifatida o‘z fikrларини bildirishni lozim deb topdim:

birinchidan, pedagogikada “yaxlit pedagogik jarayon” atamasi qo’llaniladi. Bu esa, ta’lim sifati va samarasи faqat uch komponentgagina (normativ hujjatlar, metodika, baholash) bog’liq emasligini anglatadi. Pedagogik jarayon komponentlari (qonun, qonuniyat, tamoyil, mazmun, shakl, metod, vosita, texnologiya, o‘qituvchi, o‘quvchi, didaktik, metodik va moddiy ta’minot) umumiylik, o’zaro bog’liqlik va alohida o‘ziga xoslikka egadir. Aymoqchimani, pedagogik jarayon komponentlарини “birlamchi” va “ikkilamchi” deb tasniflash mumkin emas! Bunday yondashuv bироqqlamalilik va didaktik tamoyillarning buzilishiga olib keladi;

ikkinchidan, Davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja va dasturlari ishlab chiqish hamda ta’lim amaliyotiga joriy etish o’ta murakkab ish. Ayniqsa, umumiy o’ta ta’lim muassasalari uchun ishlab chiqilayotgan normativ hujjatlar o‘quvchilarning tayyorgarligiga qo‘yiladigan malaka talablarini (kompetensiyalar) belgilab berish bilan birga, ta’lim oluvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli pedagogik risklarning oldini olish uchun “himoya mexanizmi” vazifasini bajaradi. Shuning uchun respublikamizda “ta’lim dasturlarini tanlashda yagona va tabaqalashgan yondashuv” tamoyilining amal qilishi masala yechimiga qaratilgan maqbul yo‘dir. 2017/2018-o‘quv yilidan boshlab kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan. Davlat ta’lim standarti bosqichma-bosqich umumiy o’ta ta’lim maktablari o‘quv jarayoniga tabbiq etib kelinmoqda. Xalq ta’limi vazirligi tomonidan jahonning yetakchi tashkilotlari va markazlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilayotgan yangi “Milliy ta’lim dasturi” esa, istiqbolni ko‘zlab loyihalayotganini Respublika ta’lim markazi tomonidan o’tказilayotgan webinarlar va tashkilot saytida e’lon qilinayotgan yangiliklardan anglash qiyin emas. Dastur tajriba-sinovdan o’tказilib, har tomonloma mukammal darajaga kelgandan so‘ng, ommaviy ta’lim amaliyotiga joriy etilishi maqsadga muvofig. Mana shu o’renda ochiq xat mualliflarining “taqdil etilishi kutilayotgan standartlar loyihalarining eskicha qolida tayyorlanyotgani, amaldagi dasturlardan principial farq qilmasligi, o‘zgarishlar faqat

o‘quvchilar o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan mavzularning nomini yoki ketma-ketligini o‘zgartirish bilan cheklanayotgani...” kabi fikrlariga mutlaq qo‘shilmayman. Kiritilayotgan o‘zgarish va yangiliklarni ko‘rib-bilib turib, “yo‘q” deyishimiz insofod emas! Dastur va darsliklar bilan tanishish jarayonida xalqaro baholash dasturlariga (PIRLS, PISA, TIMMS) asoslangan o‘quv materiallari va topsiriqlar adaptiv variantlarda taqdil etilayotganini yaqqol ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, ta’lim mazmunini ishlab chiqishga nisbatan xalqaro baholash dasturlaridagi metodologik yondashuvni “ideal” deb qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki har qanday xalqaro baholash dasturi ma’lum maqsadlarnigina ko‘zlab ishlab chiqiladi. Milliy ta’lim mazmuni va modelini ishlab chiqishda u yoki bu nazariya mutlaq asos qilib olinishi mumkin emas! Ta’lim mazmunini tanlashga doir konsepsiylar chuqur o‘rganilishi va o‘quv materiallарини tizimlashtirish jarayonida ulardan oqilonha foydalanish maqsadga muvofig;

uchinchidan, maqolada “metodika” va “pedtexnologiya” tushunchalari ham tilga olingan. Aslida “metodika” bu xususiy didaktika bo‘lib, har bir fanni o‘qitish qonuniylari, tamoyillari, mazmuni, shakl, metod, vosita va texnologiyalari majmuyini o‘zida aks ettiradi. Shu sababli metodika — bu metatechnologiyadir. Mazkur masala bo‘yicha “Ma’rifat” gazetasiga “Boshlang‘ich ta’lim” jurnalida kaminaning maqolalari bin necha bor o‘zbek hamda rus tillarida e’lon qilingan. Ya’ni maqola mualliflari ta’kidlagani singari “metodika” va “texnologiya” atamalari o’ta jo’n va sayoz tushunilmaydi. Texnologiya ta’lim amaliyoti uch darajada qo‘llaniladi: umumpedagogik, xususiy-metodik va lokal-modulli. Interaktiv metodlar bilan “pedagogik texnologiya” tushunchasini aynanlashtirish katta metodologik xatolikdir. Interaktiv metodlar yangi bilimlarni o‘zlashtirishga xizmat qilmaydi. Mazkur metodlarning asosiy vazifasi o‘quvchilarni faollashtirish va fikrashimi rivojlantirishdir;

to‘rtinchidan, maqola mualliflarining “eskicha yondashuv”, “eskicha fikrash” kabi jumlalari kishining ta’bini biroz xira qiladi. Chunki maktab ta’lim tizimi, uning mazmuni, tashkiliy-pedagogik va didaktik asoslariga kiritilayotgan shuncha o‘zgarish va yangilanishlar hech “eskicha fikrash” ustun deb aytish imkonini bermaydi. Aslida hamma vaqt ta’limda fundamentallik va amaliylik, an’anaviylik va novatorlik uyg‘un bo‘li-

shi, mualliflar ko‘zda tutgandek ularning mantiqiy, tanqidiy va kreativ fikrash salohiyatining oshishiga yanada hissa qo‘shilish mumkin-ku?!;

oltinchidan, talabalik yillardan shu vaqtgacha Respublika ta’lim markazi maktab ta’lim-tarbiyasiga doir masalar bilan shug‘ullanayotgan mutaxassislar uchun har doim “eshigi ochiq” tashkilot deb bilaman. Ayni vaqtida ham Markaz barchani yoshishga ishlab chiqilayotgan ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va darsliklar bo‘yicha hamkorlik qilishga chaqirmoqda. Hatto taqdil etilgan ijodiy ish mahsullari talablarga to‘liq javob bersa, shu mualliflar bilan yaqin aloqalar o‘matilayotganini eshitib turibmiz. Aksincha, biz olimlar vaqtning yetishmasligi, ishimizning ko‘pligini ro‘kach qilib, yordam bera olmayotganligimiz uchun aslida xijolatdamiz. Aymoqchimani, xalq ta’limi tizimida amalga oshirilayotgan ishlarga hissa qo‘shish shu sohaga daxldor insonlar sifatida hammamizning vazifamiz deb qarashimiz, Respublika ta’lim markazi bilan faol hamkorlikni yo‘lga qo‘yishimiz kerak! Ana shunda muammolarga birkalikda yechim topishimiz, o‘zimizning millatparvar ekanligimizni amalda isbotlashimiz mumkin!;

oltinchidan, muqobil darsliklari ko‘paytirish orqali ta’lim sifati oshib ketmaydi. O‘rtacha “ideallik”ka ega (avval ham ijtimoiy tarmoqlarda yozgan mulohazalarimda ideal darslikning o‘zi bo‘imasligini ta’kidlab o‘tgannan!) darslikka qo‘shimcha ravishda metodik qo‘llanmalar, elektron darsliklar va multimediali ilovalarni yaratish maqsadga muvofig. Darslik o‘rganilayotgan soha, yo‘nalish va masalalar doirasida yetuk ilmiy va metodik salohiyatga ega mutaxassislar tomonidan yaratilishi lozim. Maktab darsliklari hamma yaratishi mumkin bo‘lgan o‘quv adabiyoti emas! Bunday yondashuvning natijasi nima-larga olib kelishiga bugungi kunda olyi ta’lim misolida yaqqol guvoh bo‘lib turibmiz. Kecha magistraturani tugatgan, bir fan bo‘yicha auditoriyada qoyillatib dars o‘tib ham ulgurmagan, aytayotgan fikrlarining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligiga “o‘zi ham ishonmaydigan” “mutaxassislar”ning ham o‘quv qo‘llamma va darsliklar yozishga “majbur qilinishi” oqibatida biri ikkinchisini inkor qiladigan nazarialar, ta’riflar va qoidalari “ur-chigandan urchib” yotibdi;

yettinchidan, “O‘zbekiston Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi faoliyatini yanada takomillashtirish chor-a-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror loyihasi asosli takliflarni inobatga oltagan holda qabul qilinsa, ham mazkur tashkilotning, ham shu sohaga aloqador mutaxassislarini qiziqitirgan ko‘plab masalalarning ijobji yechim topishiga erishiladi. Jumladan, darsliklarning yangi avlodini yaratish, nashra ga tayyorlash va chop ettirishiga qo‘yiladigan ergonomik talablarning ishlab chiqilishiga, ayniqsa, alohida ehtiyoj mavjud. Ayni paytda mazkur masala tezroq hal etilishi maqsadga muvofigdir.

Geografiya fanidan test savollari

Nº	Savol	A	B	C	D
1.	Maktab o'quv globuslari qanday masshtabda tayorlanadi? 1) 1:83000000; 2) 1:50000000; 3) 1:5000000; 4) 1:4300000; 5) 1:4000000; 6) 1:30000000; 7) 1:73000000; 8) 1:830000000; 9) 1:3000000	1, 2, 5, 6	2, 3, 4, 9	3, 4, 5, 6	5, 6, 7, 8
2.	Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra qadimgi kishilar bundan qancha yil ilgari Yerning shaklini chizma tasvirlashga harakat qilishgan?	7 ming	8 ming	9 ming	10 ming
3.	"Safarnoma" asarini kim yozgan? (XI asr)	Nosir Xisrov	Ahmad al-Farg'oniy	Abu Rayhon Beruniy	Yoqut Hamaviy
4.	Kuzatuvchining o'zi turgan joyini ufg tomonlariga nisbatan aniqlashi nima deyildi?	orientirlash	azimutlash	ko'z bilan chanalab plan olish	nivelirlash
6.	Qaysi okean marvarid yig'ib olishda yetakchilik qiladi?	Hind	Atlantika	Shimoliy Muz	Tinch
7.	Eng yuqori suv ko'tarilishi Atlantika okeanining qaysi qo'tlig'i da kuzatiladi?	Fandi	Meksika	Biskay	Gudzon
8.	Qaysi yarimsharda Yer yuzasining 61%ni suv egallaydi?	shimoliy	g'arbiy	sharqiy	janubiy
9.	Atlantika okeaniga tegishli bo'lgan dengizlarni belgilang. 1) Marmar; 2) Barents; 3) Ueddekk; 4) Norvegiya; 5) Baffin; 6) Arafur	1, 3	2, 4	3, 5	4, 6
10.	Mikroneziya tarkibiga kiruvchi orollarni belgilang. 1) Marshall; 2) Gilbert; 3) Yangi Kaledoniya; 4) Solomon; 5) Yangi Gebrifit; 6) Taiti	1, 2	3, 5	2, 4	5, 6
11.	Lomonosov suvostti tizmizi qaysi okeanda joylashgan?	Shimoliy Muz	Tinch	Hind	Atlantika
